1-rasmdan ko'rinib turibdiki, turistik klasterining tarmoq modelining birinchi, markaziy qatlami – "klaster yadrosi" deb, nomlanadi va u klaster xo'jaligining asosiy mahsulot va xizmatlarini yaratadigan lider korxonalar va tashkilotlardan tarkib topadigan tuzilma sifatida shakllantiriladi va mijozlarni o'ziga tortadigan markaz rolini o'ynaydi. Turistik klasteri yadrosiga turoperatorlik va turagentlik firmalari, mehmonxonalar, ovqatlanish maskanlar, hordiq chiqarish inshootlar, transport xizmat ko'rsatuvchilar kiradi. Klasterning ikkinchi qatlami asosiy va qo'shimcha korxonalar va tashkilotlarining faoliyatini qo'llab-quvvatlaydigan infratuzilmalardan iborat bo'ladi. Uchinchi qatlami esa turizmni rivojlantirish departamenti va boshqa nazorat hamda tartibga soluvchi tizimosti organlaridan iborat.



**1-rasm. Turistik klasterining tarmoq modeli<sup>1</sup>**

Ushbu modelning kamchiligi hunarmandchilik turizmining o'ziga xos xususiyatini inobatga olmasligida, deb hisoblaymiz. Gap shundaki, hunarmandchilik turizmining o'ziga xos xususiyati va uning sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqa tarmoqlardan farqi shundaki, turistik xizmatlari mijozlari yashaydigan manzillarga etib ko'rsatilmadan, aksincha, bo'lajak sayyohlar o'zlari yashaydigan joydan chiqib, turizm hududiga kelgan holda ushbu xizmatlardan foydalanadilar. Ya'ni, tovar mijoz tomon emas, aksincha, mijoz tovar tomon harakatlanadi. Xorijlik sayyohlar mamlakatimizdagi obidalarni ko'rish yoki muqaddas joylarni ziyorat qilish istak-xohishini amalga oshirishi uchun, ularning O'zbekistonga tashrif buyurishiga to'g'ri keladi. Shuning uchun, ziyorat turistik klaster modelini shakllantirishda klaster yaratishning qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish maqsadida korxonalarni birlashtirish (tarmoq jihati) bilan bir qatarga, uning hududga mansubligi, birlashtiradigan korxonalarining territorial yaqinligi (hudud jihati)ni ham inobatga olish zarur, deb hisoblaymiz.


Turizm va hunarmandchilik klasterlarini shakllantirishning mintaqaviy modellari hududlardagi sayyohlik salohiyatidan oqilona foydalanish va ularning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida shakllantiriladi. "Mintaqaviy klaster, - amerikalik iqtisodchi M.Enrayt ta'rifiga ko'ra, - bu bir yoki bir nechta bir-biriga bog'langan iqtisodiyot tarmoqlarida faoliyat ko'rsatadigan firmalarning geografik birlashmasidir. Mintaqaviy klaster kichik va o'rta korxonalar joylashgan sanoat rayoni; umumiy ishlab chiqarish usullardan foydalanish va rivojlanish bilan bog'liq bo'lgan yuqori texnologik firmalarining konsentratsiyasidan iborat bo'lishi mumkin"[12].

Mintaqaviy turistik klaster - bu "gorizontal aloqalar bilan birlashtirilgan turizm sohasi va u bilan bog'langan turli tarmoqlardagi korxonalar majmuida ifodalangan turizmni hududiy tashkil etish shaklidir". Mintaqaviy turistik klasterlarning o'ziga xos xususiyatlari

<sup>1</sup> Кизим А.А., Вальвашов А.Н., Кулькова И.В. Повышение инвестиционной привлекательности региона на основе развития туристического кластера. Региональная экономика: теория и практика. 2010.№ 26 (161). С.52-59.

birlashtirilgan korxonalar o'rtasida gorizontaal ravishdagi aloqalarni o'rnatishdan iborat. Bunda, klaster ishtirokchilarning kooperatsiyasi va ularning raqobati asosida yaratib, barcha uyushtirilgan korxonalar va tashkilotlar umumiy maqsadga erishish uchun ishlaydilar.

Turizm va hunarmandchilik klasterlar mintaqaning turli hududlarida yaratiladi. Ular mikrodarajada - mintaqacha ichidagi turistik klaster; mezodarajada - mintaqaviy turistik klaster; makrodarajada - mintaqalararo turistik klaster shakllarida tuziladi. Mintaqaviy turistik klasterlar geografik makon negizida shakllantiriladi (2-rasm).



## 2-rasm. Turizm va hunarmandchilik klasterining mintaqaviy modeli

2-rasmdan ko'rinib turibdiki, turistik klasterning mintaqaviy modelining poydevorini geografik makon va uning ustqurmasini turizm sohasida xo'jalik yurituvchi subyektlar va u bilan bog'liq tarmoqlar hamda yordamchi muassasalar tashkil etadi. Turli hududlarda mintaqaviy turistik klasterlarning tuzilishi mintaqadagi turistik resurslarning hududiy birlashuviga, turli ixtisosliklar bo'yicha turistik korxonalar konsentratsiyasining shart-sharoitlariga qarab tarkibiy qismlarga farqlanadi.

Biroq, turistik klasterlarini shakllantirishning mintaqaviy modellarida asosiy e'tiborni gorizontaal aloqalarga qaratib, vertikal aloqalar yetarli darajada inobatga olinmasdan qolmoqda va bu holat klaster ichida raqobatni rivojlantirishga to'sqinlik qiladi. Modelda klaster ko'proq turistik zonalar va majmualarga o'xshab ketadi. Ushbu modelda geografik yondashuv qo'llanilgan bo'lib, unda asosiy e'tibor turistik taklif omillariga, joylarning turistik salohiyatiga qaratib, hududlarning sayyoh va ziyoratchilar nigohidan jozibadorligi, ularning marketing jihati e'tibordan chetga qolgan.

Shuningdek, ushbu modellarning mualliflari ikkita o'xshash - "mintaqaviy turizm" va "turistik hudud" tushunchalari o'rtasidagi tafovutlarni inobatga olmasdan, ularga aynan bir xil ma'nodosh atamalar deb qaralmoqda. V.A.Kvartalniy va I.V.Zorinning ta'riflariga ko'ra, "mintaqaviy turizm ma'lum bir mintaqaga xos bo'lgan turizm faoliyati, turizmni rivojlantirish sharoitlari va shunga o'xshash turistik rivojlanish darajasiga ega bo'lgan mamlakatlar yoki

hududlar majmuidir". Mintaqaviy turizm manfaatlari nuqtai nazaridan mintaqaga, birinchidan, turistlarga xizmat ko'rsatuvchi turistik qiziqish obyektlari va infratuzilma joylashgan muayyan hudud sifatida qaraladi. Ikkinchidan, mintaqa malakali ishchilar bilan ta'minlash, turistik hududlarni shakllantirish va boshqarish orqali mintaqada turizmning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi ijtimoiy-iqtisodiy majmuadir[7].

"Turistik hudud" va "mintaqaviy turizm" tushunchalarining umumiyligi ularning geografik xususiyatida, ma'lum territoriya bilan bog'langanligidadir. "Turistik hudud" tushunchasi "mintaqaviy turizm" dan farqli ravishda ham geografik va ham mahsulot birligi sifatida yuzaga chiqadi. Ya'ni, turistik hudud turistlar tomonidan o'z sayyohlik maqsadlarini amalga oshiradigan turistik joy sifatida tavsiflanadi va xorijiy adabiyotlarda "turistik destinatsiya" iborasi bilan ifodalanadi. Agar "turistik hudud" geografik va mahsulot birligi bo'lsa, "mintaqaviy turizm" faqat geografik birligidir. "Turistik hudud" turizm sohasida "strategik biznes birligi" sifatida namoyon bo'ladi va klaster usulida turistik biznesni yuritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun turistik klaster modellarini shakllantirishda turistik taklif bilan bir qatorda turistik talabni ham hisobga olishga imkon beradigan destinatsiya jihatini ham e'tiborga olish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Shu sababdan, ziyorat turistik klasterlarini shakllantirishda yangicha yondashuv kerak bo'ladi.

Klasterlarni shakllantirishning turistik hududiy (destinatsion) modellari turistlar tashrif buyuradigan mahalliy hudud (joy)lari negizida klasterlarni yaratish bilan tavsiflanadi. Chunki, sayohat va ziyorat ma'lum bir diqqatga sazovor va muqaddas joylarda amalga oshiriladi. Odatda, sayyohlar va ziyoratchilar sayohat va ziyorat qilish uchun bir necha joylarni tanlab boradigan joyining turistik destinatsiyasini shakllantiradilar.


Hududiy turistik klasterning tub belgilaridan biri, uning joylarda mahalliyashtirilganligida namoyon bo'ladi. Klaster doirasida mahalliyashtirish ichki guruhda umumiy, ko'pincha noformal, intensiv va chambarchas bog'langanlikni ifodalaydi. Mahalliyashtirish tufayli klaster qatnashuvchilari o'rtasida g'oyalar, yangi texnologiyalar to'g'risidagi axborotlarni o'rtoqlashish imkoni paydo bo'ladi. Shu sababdan klasterlar, birinchi navbatda hudud darajasidan rivojlanib boradilar. Turistik klasterlar muayyan hudud bilan bevosita bog'liqligi tufayli "turistik destinatsiya" tushunchasining tarkibiy qismi sifatida amal qiladi. YA'ni, turistik klasterlar turistik destinatsiyalarning tarkibiy qismi hisoblanadi. Xorijiy sayohlik biznesi tajribasida aynan destinatsiya turizmning asosiy elementi va uning raqobat ustunligini ta'minlovchi omil sifatida tan olinadi[33].

Polsha olimlari A.Malakauskaynte va V.Naviskas (A.Malakauskaite, V.Navickas) tomonidan yaratilgan "Klasterlashtirilgan turistik destinatsiya modeli"da turistik hududlar negizida turistik klasterlarni yaratish sa'y-harakatlari amalga oshirilgan. Ular tavsiya etgan model boshqa modellarga nisbatan turistik klasterlarini shakllantirishda tayanch asos sifatida "turistik destinatsiya" tanlab olingan (3-пачм). Ushbu modelning o'ziga xos xususiyati uning to'rt qatlamli destinatsion yondashuvligida. U yuqorida ko'rib chiqilgan klasterning tarmoq va mintaqaviy modellariga nisbatan turistik destinatsiyani klaster shakllantiruvchi poydevor sifatida tanlab, uning ustqurmasida an'anaviy uchta – klaster yadrosi, hamkor tashkilotlar va infra- va infotuzilmalarni barpo etgan.

Turistik klasteri yadrosini "turistik destinatsiya" negizida yaratish, fikrimizcha, turistik klasterlashtirishning to'g'ri yo'lidir. Chunki, mutaxassislarning fikricha, klasterlarni shakllantirishning ilk bosqichi uning joylashish sarhadini aniqlab olishdan iborat. Bu bosqichda




mazkur hudud klaster xususiyatlariga javob berishi, ushbu hududda noyob sayyohlik resurslari yoki diqqatga sazovor joylarning mavjudligi hamda klaster tuzilmasida davlat va notijorat tashkilotlarining borligi, ularning klaster bilan qanday aloqadorligini aniqlaydi. Ushbu bosqichdan o'tish sayyohlik klaster haqiqatan ham mavjud ekanligini ko'rsatadi va so'ngra uning tarkibiy tuzilmasini - klaster yadrosini, bir-biriga yaqin, o'zaro bog'liq va klasterga xizmat ko'rsatadigan korxonalar hamda klaster infratuzilmasini shakllantirish mumkin bo'ladi.



### **3-rasm. Klasterlashtirilgan turistik destinatsiya modeli**

Turistik klasterlarni shakllantirishning to'rt qatlamli destinatsion yondashuvini inobatga olgan holda va turizm hunarmandchiligi klasterining organik tuzilishdan kelib chiqib hunarmandlar joylashgan muqaddas joylarning "klasterbop qadamjo" aniqlovchisi (determinanti) negizida, biz "Turizm hunarmandchilik klasterini shakllantirishning "aqlli" turistik hudud (destinatsion) modeli"ni quyidagi ko'rinishda tavsiya etamiz (4-pacm).



**4-rasm. Ziyoratbob qadamjolar klasterini shakllantirishning "aqli" turistik hudud (destinatsion) modeli**

4-rasmdan ko'rinib turibdiki, ziyorat turistik klasterini shakllantirishning "aqli" turistik hudud modeli klasterning territorial va tarmoq jihatlarini aks ettiradigan ikkita nisbatan mustaqil qismlardan iborat:

Birinchisi, turistik hududda AKT va Internet imkoniyatlaridan keng foydalanish oqibatida "aqli" ziyorat hududini shakllantirish. "Aqli" ziyorat hududining mazmun-mohiyati, uch darajali smart modeli va klaster shakllantiruvchi xususiyati dissertatsiyaning 1.3 paragrafida batafsil yoritib berilgan. Muqaddas joylarni ziyorat klasterlarga aylantirish natijasida klasterbop "aqli" ziyorat hududlari vujudga keladi va ular klaster shakllantiruvchi tayanch asos sifatida xizmat qiladilar.

Ikkinchisi, ziyorat turistik xizmatlar ko'rsatuvchi firmalar ichidagi qo'shilgan qiymat zanjirlarini yaratish. "Qo'shilgan qiymat zanjiri" M.Porter ta'biriga ko'ra, "kompaniyaning o'z mahsulotlarini yaratish, ishlab chiqarish, marketing, yetkazib berish va xizmat ko'rsatishga qaratilgan turli tadbirlari majmui"[8], deb tushuniladi. Qo'shilgan qiymat zanjiri klaster doirasida xo'jalik yurituvchi subyektlarining qiymatini ko'paytirish imkonini yaratadi. Ziyorat turistik xizmatlarini ko'rsatish jarayonida yaratilgan qo'shimcha qiymat qanchalik yuqori bo'lsa, klasterda tadbirkorlik faoliyati shunchalik samarali bo'ladi. Shuning uchun qo'shilgan

qiymat zanjirlarini yaratishga qodir ziyorat turistik xizmatlar ko'rsatuvchi firmalarni birlashuvi evaziga ziyorat turizmini tashkil etishning klaster shaklini vujudga keltiradi.

Qayd qilish joizki, turizm hunarmandchilik hududlarni shakllantirish va firmalar ichidagi qo'shilgan qiymatni yaratish jarayonlarining o'zaro aloqadorligi va o'zaro ta'siri natijasida ziyorat klasteri vujudga keladi. Muayyan qadamjolar negizida qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishga qodir bo'lgan qadamjo turistik xizmatlar ko'rsatuvchi birlashgan mahalliy tashkilotni tuzishga ko'maklashadigan tashkiliy va iqtisodiy dastak, vosita va usullarini aniqlashtirib olish kerak. Biz tavsiya etilayotgan konseptual modeldagi qarama-qarshi tomonlarida joylashtirilgan ikkita yetakchi tarkibiy qismlarining uzviy bog'lanishi, fikrimizcha, to'rta tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari orqali amalga oshirish mumkin. Bu mexanizmlar 4-chi rasmda ikkita klaster shakllantiruvchi yetakchi qismlarining o'rtasida joylashtirilgan. Qadamjo klasterini shakllantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari tarkibiga biz quyidagilarni tavsiya etamiz: qadamjo hududlarni klasterlashtirish; vertikal va gorizontal aloqalarni o'rnatish; ichki raqobatni rivojlantirish; destinatsion marketing vositalarini qo'llash.

Qadamjo ziyorat klaster tuzish modelining ushbu tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarining har birini ko'rib chiqamiz.

Qadamjo ziyorat hududlarni klasterlashtirish deganda biz muqaddas joylarni ziyorat klasterbopligini aniqlash mezonlari bo'yicha turli sifat darajalarga bo'lish jarayonini nazarda tutamiz. Biz muqaddas joylarning ziyorat klasterboplik darajasini aniqlash metodologiyasi va mezonlarini ishlab chiqib, ular asosida muqaddas joylarning ziyorat klasterbopligini to'rta: 1) "muqaddas maskan"; 2) "diqqatga sazovor muqaddas joy"; 3) "jozibador ziyorat hududi"; 4) "klasterbop ziyoratgoh" sifat darajalariga bo'lingan. Muqaddas joylarning bunday tasniflash ziyorat klasterining poydevorini yaratish, uning sarhadlarini aniqlashga xizmat qiladi. Hududiy turistik klasterni yaratishning muhim sharti joylarda turistik va infratuzilma obyektlarining mavjudligidir. Turistik klaster bitta cheklangan hudud doirasida turistik xizmat ko'rsatuvchi o'zaro bog'langan korxonalar va tashkilotlarning konsentratsiyalashganlik darajasi bilan tavsiflanadi. Ziyorat turistik klasterining hududiy yaqinligi muqaddas joylar bilan bog'liq. Demak, ziyoratchi avval safar maqsadi asosida o'z "ziyosat hududi" ni shakllantiradi-da, so'ngra tanlangan ziyorat hududiga to'g'ridan-to'g'ri safar qiladi. N. V. Rubsova haqli ravishda "chegaralardagi o'zgarishlar va turistik yo'nalishlarning roli turistik klasterning geografik konsentratsiyasini belgilaydi"[9], deb ta'kidlaydi. Aynan klasterbop ziyoratgoh, fikrimizcha, klaster yadrosi hosil qiladigan poydevor sifatida xizmat qiladi.

Vertikal va gorizontal aloqalarni o'rnatish. Qadamjo ziyorat turizmini klaster usulida tashkil etish ziyorat turistik xizmatlar majmuasining texnologik zanjirini yaratishni taqozo etadi. Buning uchun xizmat ko'rsatish jarayonining barcha ishtirokchilarini bir-biriga birlashtirish kerak bo'ladi. Bunday klaster birlashuvi vertikal integratsiya doirasida amalga oshiriladi. "Vertikal integratsiya - bozorda qo'shimcha raqobat ustunliklariga ega bo'lish maqsadida mahsulot ishlab chiqarish, sotish va marketingi bosqichlarida ishtirok etuvchi ilgari mustaqil xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy, moliyaviy va tashkiliy birlashuvidir"[38]. Bunday integratsiyada qadamjo ziyorat klasteri doirasida yagona texnologik jarayonlarning birlashishi amalga oshiriladi va pirovardida ziyorat klasteri xizmat majmuasining barcha zanjir halqalari klaster nazoratiga o'tadi. Klaster endi xizmatlarni yetkazib beradigan vositachilari bilan hamkorlik qilmasdan, yetkazib beruvchi firmalarni klasterning ajralmas qismiga

aylantiradi. Vertikal integratsiya natijasida tranzaksion xarajatlarning kamayishi va butun xizmat ko'rsatish jarayonini jadallashishi tufayli xizmatlar tannarxi pasayadi.

Klaster doirasida gorizontal integratsiya jarayonida yagona texnologik zanjir bilan bog'liq bo'lmagan korxonalarining birlashuvi amalga oshiradi. Gorizontal aloqalar biznes hamkorlar o'rtasida kooperatsiya munosabatlariga asoslanadi. Bunday aloqalar turistik klasterda banklar, mehmonxonalar, turoperatorlar, umumiy ovqatlanish korxonalar, konsalting firmalar va boshqa turizm bilan bog'liq tashkilot va muassasalarning birlashuvida namoyon bo'ladi. Gorizontal integratsiya klaster doirasida biznes hamkorlar o'rtasida kooperatsiya munosabatlariga asoslanadi. Gorizontal integratsiya – korxonalarining bir yoki bir necha tarmoqlar doirasida integratsiyalashuvi turidir. Bunday integratsiya bir firma shu xizmat ko'rsatish sohasida va shu xizmat ko'rsatish darajasida bo'lgan boshqa firmani o'z nazoratiga olganda yoki o'z zimmasiga olganda yuzaga keladi. Ishlab chiqarishning bir xil bosqichlarida, savdo zanjirining bir bo'g'inida, bir xil sanoat sohasida bir xil bozor segmentida ishlaydigan va raqobatlashadigan va bir xil yoki o'xshash mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yoki o'xshash xizmatlar yoki shunga o'xshash xizmatlarni taqdim etadigan firmalarning integratsiya turidir. Gorizontal integratsiyaning ijobiy oqibatlariga quyidagilar kiradi: ishlab chiqaruvchilar sonini kamaytirish; sinergetik samara olish; yetkazib beruvchilar va iste'molchilarning bozor ta'sirini kamaytirish; raqobat ustunliklariga ega bo'lish; ishlab chiqarish jarayonini himoya qilish va pozitsiyaning barqarorligini ta'minlash maqsadida raqobat to'qnashuvidan xavf darajasini kamaytirish.

Ichki raqobatni rivojlantirish. Klasterning firma, kompaniya, korporatsiya va boshqa xo'jalik yuritish shakllaridan farqli o'laroq, o'z tarkibiy bo'linmalari o'rtasida ichki raqobat uchun qulay imkoniyatga egaligida. Mutaxassislarining fikricha, "klasterlashtirishning sinergetik samarasini raqobat oldi birlashuvi ta'minlaydi". Klaster ichida raqobatni ta'minlashda "Raqobat benchmarking", deb nomlangan klaster shakllantirish vositasi muhim rol o'ynaydi. Benchmarking (ingliz tilidan "bench" — "daraja", "mark" — "belgi") o'z biznesini yaxshilash maqsadida boshqa kompaniyalardan bilim va ma'lumot olish uchun o'rganishni bildiradi. Benchmarking – mavjudlaridan eng yaxshi boshqaruv va biznesni yuritish usulini topish va o'rganish jarayonidir. Boshqacha aytganda benchmarking yetakchi korxonalarining ilg'or tajribalaridan foydalanish, ilg'or tajribani orttirish, etalon qiyoslash degan ma'nolarini bildiradi. Benchmarking amaliyotining eng ko'p tarqalgan turlariga: ichki, funksional, global, umumiy va uyushmali qiyoslash, raqobatbardoshlik benchmarking va jarayon benchmarking kiradi[10]. Raqobat benchmarking jarayoni ketma-ket harakatlarning quyidagi bosqichidan iborat[11]: takomillashtirishni taqozo etadigan biznes-jarayonlar va vazifalarni aniqlab olish; tahlil qilinadigan ko'rsatkichlarni aniqlash; o'rganilayotgan sohaning ichidagi va tashqarisidagi eng yaxshi iqtisodiy subyektlarni birday qilish; tanlangan yo'nalish bo'yicha to'plangan ko'rsatkichlarni baholash; o'lchovlar haqida ma'lumotlarni tayyorlash; liderlik va o'z ko'rsatkichlarini taqqoslash va tahlil qilish; o'tkazilgan tadqiqotlar asosida xatolar ustida ishlash; ishlab chiqish, amalga oshirish va yakunlash.

Destinatsion marketing vositalarini qo'llash. Klaster yondashuvida ziyorat turistik faoliyatini samarali tashkil etish uchun bu sohada "destinatsion marketing" konsepsiyasini qo'llash lozim. Destinatsion marketing – bu turistik talabni boshqarishning hududiy usul va shakllaridir. U turistik hududning sayyohlik xizmatlarga bo'lgan talabning darajasi va tarkibini shakllantirish hamda mazkur turistik talabning vujudga kelish vaqtini aniqlash bilan

shug'ullanadi. Destinatsion talab va hududiy taklifning integratsiyasi natijasida turistik-jozibali joylar turistik destinatsiyalarga aylanadi. Ziyorat klasterlarini yaratish jarayonida, bizning fikrimizcha, turistik xizmatlar bozori bilan bog'liq bo'lgan to'rtta qo'yidagi destinatsion marketing vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi: klasterlarning ixtisoslashtirilgan ziyorat turistik mahsulotini yaratish; ixtisoslashgan klaster mahsulotiga ziyoratchilarga manzur narxlarni o'rnatish; ziyorat hududlar bo'yicha tijorat asosida ziyoratchilarni tashrifini tashkil etish; ziyorat klasterlarning brendini yaratish, reklamasini tashkil etish va sayr-u tomoshalarni rag'batlantirish chora-tadbirlarni ko'rish.

Marketingni destinatsion konsepsiyasini ziyorat klasterini shakllantirishda qo'llash evaziga bu sohada tadbirkorligini jadal rivojlantirish va turistik oqimlarni barqarorlashtirishga erishish imkoniyatlari vujudga keladi.

Yuqorida tavsiflangan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar ta'sirida Ziyorat klasterini shakllantirishning "aqli" turistik hudud (destinatsion) modelida "qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishga qodir bo'lgan ziyorat turistik xizmatlarini ko'rsatuvchi birlashgan mahalliy tashkiloti" talqinidagi ziyorat klasteri shakllanadi.

Nihoyat, tavsiya etilayotgan klaster modelimizda ziyorat hududlarni shakllantirish va ziyorat turistik xizmatlar ko'rsatuvchi firmalar ichidagi qo'shilgan qiymatni yaratish jarayonlarining o'zaro aloqadorligi va o'zaro ta'sirini klasterlashtirish, vertikal va gorizontall integratsiyalash, klaster ichidagi raqobatni benchmarking orqali rivojlantirish hamda destinatsion marketing vositalarini qo'llash evaziga shakllantirilgan yangi sifatga ega ziyorat klasterining sinergetik samarasi - ixtisoslashtirilgan ziyorat turistik mahsulotining raqobatbardoshligini oshirishda namoyon bo'ladi. Klasterning ushbu samarasi 4-chi rasmning eng pastki qismida ko'rsatilgan.

#### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrda "O'zbekiston Respublikasi sayyohlik sohasini rivojlantirishni tezlashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi farmoni.
2. Понятие вертикальной и горизонтальной интеграции (2020). <https://dividendoff.net/investitsii/gorizontalnaya-integracziya.html> (дата обращения: 22.03.20 г).
3. Кластерная экономика и промышленная политика: теория и инструментарий (2015) / под ред. д-ра экон. наук, проф. А.В. Бабкина. – СПб. : Изд-во Политехн. ун-та. – 588 с. С.98.
4. Воеводина Н. А., Логинова Е. Ю., Толберг В. Б., Кулагина А. В. (2020).
5. Бенчмаркинг – инструмент развития конкурентных преимуществ. <http://litra.pro/benchmarking--instrument-razvitiya-konkurentnih-preimuschestv/voevodina-n-a/read/1> (дата обращения: 30.03.20 г.).
6. Андрей Моисеев.(2020) Бенчмаркинг:сущность, этапы и инструменты. <http://umom.biz/benchmarking-sushhnost-etapy-instrumenty/#ixzz6I9oSRU8L> (дата обращения: 20.03.2020).
7. Рябуха А.Ю. Управление развитием местных сообществ на основе использования туристского пространства: дис. ... канд. экон. наук. Краснодар, 2006.

8. Боголюбов В.С., Орловская В.П. Экономика туризма. 3-е изд. - М.: Академия, 2005, 192 с.
9. Кабушкин Н.И., Менеджмент туризма: Учебник/-3-изд., испр. – Мн.: Новое знание, 2002. – 409с., 25с.
10. Николаев С. С. Стратегия формирования единого туристского пространства в регионе: На примере Санкт-Петербурга и Ленинградской области // Автореферат кандидата экономических наук. [Электронный ресурс]. Санкт-Петербург. 2000. - Режим доступа: <http://www.dissercat.com/content/strategiya-formirovaniya-edinogo-turistskogo-prostranstva-v-regione-na-primere-sankt-peterbu.28.02.2012.g>.
11. Себекина Т. А. Формирование комплекса продвижения туристских услуг дестинации (на примере Камчатки): // Автореферат кандидата экономических наук. [Электронный ресурс]. Москва. 2006. - Режим доступа: <http://www.dissercat.com/content/formirovanie-kompleksa-prodvizheniya-turistskikh-uslug-destinatsii-na-primere-kamchatki>
12. Enright M.J. Survey of the Characterization of Regional Clusters: Initial Results. Working Paper \\ Institute of Economic Policy and Business Strategy: Competitiveness Program University of Hong Kong. 2000. 21 p. P: 2.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 5/8 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).